



BACHADON MIOMALARI

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Rahimova Mohinur Azmiddin qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Pediatric fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bachadon miomalari kasalligining etiologiyasi, klinik belgilar, diagnostika va davolash usullari yoritilgan. Miomalar ayollar reproduktiv tizimining eng ko'p uchraydigan o'sma kasalliklaridan biri bo'lib, uning rivojlanishiga gormonal o'zgarishlar, genetik omillar va hayot tarzi ta'siri muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, erta tashxis va individual yondashuv miomalarni samarali davolashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: bachadon miomasi, gormonal o'zgarish, o'sma, reproduktiv salomatlik, davolash.

Kirish

Bachadon miomalari (leiomiomalar) — bu bachadon mushak qatlamidan rivojlanadigan o'sma bo'lib, u ko'pincha ayollarning reproduktiv yoshida uchraydi. Ular gormonal o'zgarishlar, ya'ni estrogen va progesteron gormonlarining muvozanatsizligi bilan bog'liq. Miomalar ayollarda hayz ko'rish buzilishlari, bepushtlik, homiladorlikdagi asoratlari va og'riqli holatlarni keltirib chiqaradi. So'nggi yillarda ushbu kasallikni erta aniqlash va minimal invaziv davolash usullarining rivojlanishi miomalarga nisbatan tibbiy yondashuvni o'zgartirdi.

Asosiy qism

Bachadon miomasining umumiy tavsifi

Bachadon miomalari (leiomioma yoki fibromioma) — bu bachadonning silliq mushak to'qimasidan paydo bo'ladigan yaxshi sifatli o'sma hisoblanadi. U ayollarning 20–40 yosh oralig'ida, ayniqsa reproduktiv davrda tez-tez uchraydi. Kasallikning rivojlanishida estrogen va progesteron gormonlarining miqdori hal qiluvchi rol o'ynaydi. Miomalar odatda bir yoki bir nechta tugunlar shaklida rivojlanadi va ular joylashuviga qarab submukoz, intramural va subseroz turlarga bo'linadi.

Bachadon miomasi paydo bo'lishining sabablari

Ko'pincha bachadon miomasi rivojlanishi ayollarda gormonal buzilishlar bilan bog'liq, ayniqsa estrogen konsentratsiyasi ortishi bilan. Ushbu gormonal buzilish ko'proq reproduktiv davrdagi yosh ayollar uchun xos hisoblanadi.



Menopauza vaqtida estrogen gormonlarining tabiiy kamayishi tufayli bachadon miomasi o'z-o'zidan, davolashdan qat'iy nazar, yo'qolib ketishi mumkin. Bundan tashqari, bachadon miomasining sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

Irsiy moyillik;

Gormonal buzilishlar;

Adenomioz;

Jinsiy a'zolarida yallig'lanish jarayoni;

Modda almashinuvi kasalliklari (qandli diabet, shu jumladan);

Surunkali tizimli kasalliklar;

Kamharakat hayot tarzi, ortiqcha vazn;

Surunkali stress holati;

Abortning ta'siri, intrauterin (bachadon ichi) kontratseptivlarni qo'llash;

Jinsiy hayot bilan bog'liq norozilik (jinsiy aloqada anorgazmiya).

Bachadon miomasi paydo bo'lishining ayrim sabablari batafsil tushuntirilishi kerak.

Gormonal kasalliklar

Mioma — gormonga bog'liq bo'lgan kasallikdir. Organizmda ayol gormonlari darajasi past bo'lganda, ya'ni jinsiy balog'atga yetishdan oldin va klimaks davriga kirgach, bachadon miomasi rivojlanishi ehtimoli juda kamdir. Estrogen gormonlar konsentratsiyasining me'yoridan ortiqqligi mioma rivojlanishiga olib keladi.

Biroq, inson organizmida barcha gormonlar o'zaro bog'liqligini ham inobatga olish kerak va ko'pincha bachadon miomasi nafaqat estrogen konsentratsiyasining yuqoriligi, balki ayol jinsiy tizimining barcha gormonlari nozik muvozanatning buzilishi sabab paydo bo'lishi mumkin. Inson organizmida endogen estrogenlarga o'xshash moddalar aniqlangan va bachadon miomasi ularga huddi estrogenlarga kabi sezuvchanlikka egadir. Ushbu moddalar ksenoestrogenlar deyiladi va ularning mavjudligi, shuningdek, o'sma shakllanishiga turki bo'lishi mumkin.

Homiladorlik, tug'ish, abortlar soni

Mioma shakllanishi sababchisi sifatida gormonal o'zgarishlarning differentsial tashxisida ko'plab omillar hisobga olinadi, masalan, ayol menstrual davrining boshlanishi, menstrual siklning o'rtacha davomiyligi, homiladorliklar, tug'ruqlar soni, emizish muddati va umuman uning mavjudligi. Statistika ko'ra, kamida bitta farzand tuqqan ayollarda anamnezida tug'uqlar bo'lmagan ayollarga nisbatan miomaning paydo bo'lishi ehtimoli ancha past bo'ladi.

Oziqlanish ratsioni

Taomnoma kaloriyaligining yuqoriligi, to'yingan yog' kislotalari va yuqori darajali qayta ishlangan mahsulotlarni iste'mol qilish, shuningdek, o'simlik



tolalarini yetarli qabul qilmaslik kabi noto'g'ri ovqatlanish semizlikka olib keladi, bu esa bachadon miomasi xavfini oshiradi. Organizmda yog' foizining ortiqchaligi gormonal muvozanatning buzilishi, xususan, androgenlarning kamayishi, estestrogenlarning esa oshishiga olib keladi. Bunday gormonal kasalliklar sezilarli darajada ham yaxshi sifatli (endometriozi, bachadon miomasi), ham reproduktiv tizimning yomon sifatli o'smalari va hatto ko'krak bezi saratoni rivojlanishi xavfini oshiradi.

Operatsiya turi Jarrohlik aralashuvi strategiyasi

Laparaskopiya UTT va videokamera nazorati ostida qorindagi kichik tirqish orqali amalga oshiriladigan operatsiya turi

Gisteroskopiya Maxsus asboblardan yordamida bachadondagi o'smalarni intravagina olib tashlash

Qo'rin orqali operatsiya Bachadon miomatozini olib tashlash qorinning pastki qismidagi tirqish orqali amalga oshiriladi, bugungi kunda juda kam qo'llaniladi Gisterekтомиya Bachadon tanasi butunlay olib tashlanadigan operatsiya, boshqa, kamroq radikal davolash usullari qo'llanilib bo'lmaydigan hollarda ko'rsatiladi

Aytib o'tish kerakki, agar ayolga miomani operatsiya qilish tavsiya etilsa, organizmni avaylovchi va reproduktiv salohiyatni saqlab qoluvchi usullar laparaskopiya yoki gisteroskopiya bo'ladi. Shunda organizmni tiklanish davri imkon qadar tez bo'ladi va ayolning bachadonini saqlab qolish va uni homilador bo'la olish qobiliyati saqlanib qoladi.

Bachadon arteriyalarning embolizatsiyasi

Embolizatsiya, ya'ni bachadon arteriyalarini to'sib qo'yish miomani davolashning ajoyib usuli bo'lib, u katta salohiyatga ega. Bunday muolajani amalga oshirish uchun bachadonga maxsus zond kiritish va bachadon miomatoz tugunini qon bilan ta'minlaydigan muayyan tomirni topish kerak bo'ladi. Keyin bu arteriyaga tomir embolizatsiyasini keltirib chiqaradigan maxsus moddalar kiritiladi. O'smaning oziqlanishi to'xtaydi va asta-sekin o'simta so'rilib ketishi mumkin. Afsuski, bu operatsiya har qanday mioma uchun to'g'ri kelmaydi, shuningdek, bunday davolanishning oqibatlari va kasallik qaytalanishi xatarlari to'liq o'rganilmagan. Ammo, ko'pchilik shifokorlar ijobiy fikrda va hatto bunday muolajadan keyin ayol homilador bo'lishi va homila ko'tarishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Shuni yodda tutish kerakki, har bir bemorda reproduktiv vazifani saqlab qolish masalasi individualdir.

Bachadon miomasini xalqona vositalar yordamida davolash

Bunday umidsizlikka duchor bo'lgach, ko'plab ayollar ushbu muammoni hal etishning muqobil usullarini qidirishga urinishadi. Qidiruvlardan so'ng, uy sharoitida miomadan qutulishning barcha xalq tabobati uslublari dorivor o'simliklar bilan qinni chayish va tamponlar kiritishga asloslanganligi ma'lum



bo'ladi. Shifokorlar organizmda sinovlar o'tkazmaslik va mustaqil davolanishga qo'l urmaslikka chaqiradi. Chunki uy sharoitida kiritilgan dorivor preparatlar sog'liqning yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Bunday holatda xalq tabobati samarasizdir, o'simlik dori vositalari kasallik alomatlarini kamaytirishga yordam beradi, ammo bachadon miomasining rivojlanishini to'xtatmaydi. Biroq, bunday muolajani sinab ko'rish istagi mavjud bo'lsa, unda bu masalani boshlangunga qadar shifokor bilan muhokama qilish tavsiya etiladi.

Mioma asoratlari va oqibatlari

Mioma ko'pincha hech qanday alomatlar namoyon etmasa yoki namoyon bo'lsa-da, lekin noqulaylik tug'dirmasa, ayollar tashxis va davolashni ko'pincha bir chetga surib qo'yishadi. Organizmning bu qismini e'tibordan chetda qoldirish juda xavflidir. Kasallik yomon sifatli o'simta belgilarini olishi mumkin, bu esa nazoratsiz o'sishga va juda ancha yoqimsiz davolashga, shuningdek, boshqa ko'plab noxush oqibatlarga olib keladi.

O'smalarning malignizatsiyasi

Bachadon miomasining eng dahshatli asoratlaridan biri yaxshi sifatli o'smaning yomon sifatliga aylanishidir. Shifokorlar, o'tish ehtimoli yuqori emas, biroq mavjud degan fikrda. Shuning uchun, agar bachadonda mioma aniqlansa, reproduktiv tizimning holatini diqqat bilan kuzatish, ginekologga muntazam tashrif buyurish va o'smalar hajmini nazorat qilish uchun ultratovush tekshiruvidan o'tib turish kerak. Oxirgisi ayniqsa muhimdir, chunki aynan shishning tez o'sishi u onkologik patologiyaga o'tishning birinchi belgisidir.

Anemiya rivojlanishi

O'z salomatligiga e'tibor qilmaslik, mioma tufayli kelib chiqqan kuchli bo'lmagan, ammo muntazam bachadondan qon ketishlar oddiy qon yo'qotishlarga va anemiya sindromi rivojlanishiga olib keladi. Bu kasallikning yana bir xavfi, kamqonlikning asta-sekin rivojlanishi tanani bunday holatga moslashishiga imkon beradi, natijada bu holatdan chiqish uchun tashxis va davolash murakkablashadi.

Reproduktiv funktsiyaning yo'qotilishi

Ayollarning reproduktiv tizimi patologiyalarining erta tashxislash muammosi ortib borayotganligi sababli, kech bosqichda aniqlangan mioma tufayli gisterektomiyaga (bachadonni olib tashlashga) chalingan ayollar soni tobora ortib bormoqda. Ushbu jarrohlik aralashuvi juda ko'p noxush oqibatlarga olib keladi va ayolning tanasi uchun katta stressdir. Afsuski, bu holda reproduktiv funktsiyaning amalga oshirish mumkin emas.

Agar jarrohlik yo'li bilan davolash tibbiy nuqtai nazardan eng maqbul bo'lsa, ayol birinchi navbatda o'zining sog'lig'i haqida o'ylashi kerak. Ayolning organizmida bachadon faqat farzand tug'ish uchun xizmat qiladi va bu a'zosiz ham ayol uzoq va to'liq hayot kechirishi mumkin.



Agar bemorning farzandlari bo'lsa, muammoning axloqiy tomoni oson hal bo'ladi. Shunga qaramay, agar ayolning farzandi bo'lmasa ham, ushbu imkoniyatni saqlab qolish uchun o'z hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yish kerak emas. Agar operatsiya o'tkazish tavsiya etilgan bo'lsa, demak, jarayonni boshqa usullar bilan to'xtatib bo'lmaydi va bu a'zoning yo'qotilishi muqarrardir. O'smaning yomon sifatli shishga aylanishi ehtimolini esdan chiqarmaslik kerak.

Etiologiya va rivojlanish mexanizmi

Miomalarning sabablari to'liq aniqlanmagan bo'lsa-da, ilmiy manbalarda quyidagi omillar asosiy sabab sifatida qayd etiladi: gormonal muvozanatsizlik, genetik moyillik, stress, tashqi muhit ta'siri va reproduktiv omillar. Bu omillar bachadon mushak hujayralarining mutatsiyaga uchrashiga va o'sma to'qimaning shakllanishiga olib keladi.

Klinik kechish va alomatlar

Miomalar o'sish tezligi, joylashuvi va o'lchamiga qarab turlicha simptomlarni namoyon etadi. Eng keng tarqalgan belgilar: hayz ko'rishning ko'payishi, anemiya, qorin pastida og'riq, siydik chiqarishdagi qiyinchiliklar, bepustlik va homila tushish xavfi. Ba'zi hollarda miomalar simptomsiz kechadi va faqat UZI tekshiruvda aniqlanadi.

Diagnostika

Miomalarni aniqlashda klinik ko'rik, ultratovush tekshiruvi (UZI), magnit-rezonans tomografiya (MRT) va gisteroskopiya muhim ahamiyatga ega. Laborator tahlillar gormonal fonni aniqlash va anemiyani baholashda yordam beradi.

Davolash usullari

Davolash usuli miomaning o'lchami, joylashuvi, bemorning yoshi va farzand ko'rish rejalari bilan belgilanadi. Asosiy davolash yo'nalishlari: medikamentoz davo (gormonal terapiya), jarrohlik usullar (miomektomiya, histerektomiya) va minimal invaziv texnologiyalar (UAE, FUS ablatsiya).

Oqibatlar va asoratlar

Davolanmagan miomalar surunkali anemiya, bepustlik, homiladorlikdagi asoratlar va kuchli qon ketishlarga sabab bo'ladi. Shu bois har bir ayol muntazam ginekologik ko'riklardan o'tib turishi zarur.

Profilaktika va sog'lom turmush tarzi

Profilaktika choralari sog'lom ovqatlanish, stressni kamaytirish, muntazam tibbiy ko'riklar, me'yoriy tana vaznini saqlash va gormonal muvozanatni nazorat qilishdan iborat.

Xulosa

Bachadon miomalari ayollar sog'lig'iga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan, ammo erta aniqlansa muvaffaqiyatli davolanishi mumkin bo'lgan kasallikdir.



Zamonaviy diagnostika va individual davolash usullari tufayli ko‘plab ayollar reproduktiv salomatligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Har bir ayol o‘z sog‘lig‘iga e‘tiborli bo‘lishi va profilaktik tekshiruvlardan muntazam o‘tib turishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berek, J. S. Berek & Novak’s Gynecology. 16th Edition. Lippincott Williams & Wilkins, 2020.
2. Stewart, E. A. “Uterine fibroids.” The Lancet, 2017.
3. WHO Reproductive Health Report, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi ma’lumotlari, 2023.
6. Bulun, S. E. “Uterine Fibroids.” New England Journal of Medicine, 2013.